

**O‘zbekiston texnik jihatdan
tartibga solish agentligi
bosh direktorining
“3” iyul 2023 yil
108k - sonli buyrug‘iga
8-Illova**

**O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi
huzuridagi O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi
Muvofiqlikni baholash va sifat tizimlari menejenti boshqarmasi**

NIZOMI

1. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi Muvofiqlikni baxolash va sifat tizimlari menejmenti boshqarmasi (keyingi o‘rinlarda Boshqarma deb ataladi), asosiy vazifalari, funksiyalari, huquqlari majburiyatlarini, va javobgarligini belgilaydi.

2. Boshqarma o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga va boshqa qonun hujjalariiga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlariga va farmoyishlariga shuningdek, mazkur Nizomga va boshqa qonunchilik hujjalariiga amal qiladi.

3. Boshqarma boshlig‘i “O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish” agentligi Bosh direktori buyrug‘i bilan lavozimiga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi.

4. Boshqarma boshlig‘i lavozimiga oliy texnik malumotga ega bo‘lgan va O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi tizimida kamida besh yil ishlagan mutaxassis tayinlanadi.

5. Boshqarma bosh mutaxassis lavozimida oliy texnik malumotga ega bo‘lgan va O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi tizimida kamida 3 yil ishlagan mutaxassis ishlashi mumkin.

2-bob. Boshqarma faoliyatini tashkil etish va tugatish

6 Boshqarma “O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi markaziy apparatining tarkibiy bo‘linmasi hisoblanadi hamda bevosita Bosh direktorga va Bosh direktor o‘rinbosariga bo‘ysunadi;

Boshqarma boshlig‘i:

boshqarma faoliyatiga umumiy rahbarlik qiladi;

boshqarma vakolatiga kiruvchi masalalar bo‘yicha qarorlar qabul qiladi va boshqarmaga yuklangan vazifalar va funksiyalarning bajarilishi uchun shaxsan javob beradi;

boshqarma xodimlarini belgilangan tartibda lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod qilish yuzasidan asoslangan takliflarni rahbariyatga kiritadi;

qo'shimcha tarzda, o'zining xizmat majburiyatlarini vijdongan va samarali bajaruvchi, tashabbuskor xodimlariga ustama to'lovlar to'lab berish yuzasidan asoslangan takliflarni rahbariyatga kiritadi;

guruhibozlik, mahalliychilik, favoritizm ko'rinishlarining, shuningdek o'z xizmat vazifalarini bajarish jarayonida boshqa salbiy omillarning qat'iy ravishda oldini oladi;

manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va ularni tartibga solish yuzasidan o'z vaqtida chora-tadbirlar ko'radi;

korrupsiyaning oldini olish choralarini ko'radi;

xodimlarni samarali boshqarish davlat mulkiga ehtiyojkorlik va tejamkorlik bilan munosabatda bo'ladi;

o'ziga bo'ysunuvchi, xizmatdagi xulq-atvori prinsiplari va qoidalarini buzayotgan xodimlarning xatti-harakatlariga (harakatsizligiga) yo'l qo'yilmasligi choralarini ko'rmaganligi uchun javob beradi;

Boshqarma boshlig'i qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vazifalarni ham amalga oshiradi.

7. Boshqarma xodimlari

o'z kasbiy faoliyatini quyidagi prinsiplar asosida amalga oshirishlari kerak: qonuniylik;

fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi;

vatanparvarlik va xizmat burchiga fidoiylik;

davlat va jamiyat manfaatlariga sodiqlik;

adolatlilik, halollik va xolislik;

manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik;

o'z xizmat vazifalarini bajarishda manfaatlar to'qnashuviga sabab bo'ladigan shaxsiy manfaatdorlik holatlariga yo'l qo'ymaslik.

8. Boshqarma bosh mutaxassisini boshqarma boshlig'ining yo'qligida uning vazifalarini to'laqonli amalga oshiradi.

3-bob. Boshqarmaning asosiy vazifa va funksiyalari

9. Boshqarmaning asosiy vazifalari hisoblanadi:

"Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risida"gi, "Muvofiqlikni baholash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonunlari hamda muvofiqlikni baholash sohasidagi boshqa normativ-huquqiy hujjatlar amaliy jihatdan amalga oshirilishini ta'minlash;

Muvofiqlikni baholash bo'yicha xalqaro standartlarni qo'llash asosida mahsulotlar sifati va raqobatbardoshligini oshirish sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirishda ishtirok etish;

milliy sertifikatlashtirish tizimining faoliyatini va rivojlanishini hamda mazkur sohada xalqaro, davlatlararo va ilg'or xorijiy mamlakatlarning milliy tizimlari bilan uyg'unlashgan holda faoliyatni tashkil etish;

mahsulotlar, ishlar, xizmatlarning sifati va xavfsizlik talablariga rioya qilinishi va iste'molchilar huquqlarini muhofaza qilishga doir

chora-tadbirlarni amalga oshirish;

mahsulotlar, ishlar, xizmatlarni texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiq sertifikatlashtirishni tashkil qilish;

eksport qiluvchi korxonalarga muvofiqlikni baholash masalalarida qulay sharoitlarni yaratish, xalqaro tashkilotlar bilan milliy sertifikatlar va muvofiqlikni baholash ishlari natijalari asosiy eksport bozorlarida tan olinishiga yo‘naltirilgan hamkorlikni faollashtirishda ishtirok etish, idoraviy mansub tashkilotlari bilan birqalikda O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligiga yuklatilgan muvofiqlikni baholash sohasidagi vazifa va funksiyalarning samarali bajarilishini tashkil etish va ta’minlash.

10. Boshqarma unga yuklangan asosiy vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish” agentligining hududiy bo‘linmalari va idoraviy mansub tashkilotlar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari, farmonlari, farmoyishlari, Hukumat qarorlarining muvofiqlikni baholash sohasidagi bajarilishini tizimli nazoratini ta’minlaydi;

O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga, muvofiqlikni baholash sohasidagi kiritiladigan hujjatlarning sifatli va o‘z vaqtida ishlab chiqilishini va ularning vakolat doirasida ekspertizadan o‘tkazilishini tashkil etadi;

O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining tizim tashkilotlar faoliyatiga muvofiqlikni baholash sohasida rahbarlik qiladi, muvofiqlashtiradi va nazoratni amalga oshiradi;

O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining faoliyati, xususan muvofiqlikni baholash sohasida, qonun ijodkorligi sohasidagi faoliyatini huquqiy ta’minlanishini tashkil etadi;

muvofiqlikni baholash qoidalarining amaliyotda ta’minlanishini tashkil etadi va bu borada muvofiqlikni baholash sub’ektlaridan muvofiqlikni baholash hamda tasdiqlashga oid materiallarini (hujjatlarini) so‘rab oladi hamda nazoratini tashkillashtiradi;

mahsulotlarning sinovlari shaffofligini ta’minlash maqsadida amaldagi standart va me’yorlarga muvofiq har bir mahsulot bo‘yicha sinov dasturlarini ishlab chiqishni muvofiqlashtiradi;

transport vositasini turini ma’qullash hujjatlarini ro‘yhatga oladi va reestrini yuritadi;

menejment tizimlarni birinchi navbatda eksportyor-korxonalarda joriy qilish, shuningdek tizimlarni baholash faoliyatini xalqaro standartlarga mosligini muvofiqlashtiradi;

yangi qonun hujjatlarini ishlab chiqish va amaldagi qonun hujjatlarini takomillashtirish yuzasidan takliflar kiritadi;

muvofiqlikni baholash bo‘yicha asosiy yo‘nalishlarni belgilovchi istiqbolli dasturlarni ishlab chiqadi;

muvofiqlikni baholash sohasida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish maqsadida, shu jumladan interaktiv davlat xizmatlari turlarini kengaytirish borasida takliflarni ishlab chiqadi.

“Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish to‘g‘risida”, “Muvofiqlikni baholash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlari hamda sertifikatlashtirish sohasidagi boshqa normativ-huquqiy hujjatlarni amaliy jihatdan amalga oshirilishini ta‘minlash sohasida xalqaro va davlatlararo ilmiy-texnik hamkorlikni rivojlantiradi;

mahsulotlar sifati va raqobatbardoshliligini oshirish sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish borasida:

sertifikatlashtirish masalalari bo‘yicha davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlariga o‘z vakolatlari doirasida rahbarlik qiladi va ular faoliyatini muvofiqlashtiradi;

yangi qonun hujjatlarini ishlab chiqish va amaldagi qonun hujjatlarini takomillashtirish yuzasidan takliflar kiritadi;

sertifikatlashtirishni rivojlantirish bo‘yicha asosiy yo‘nalishlarni, konsepsiyalarni, istiqbolli dasturlarni ishlab chiqadi;

muvofiqlikni baholashning yagona qoidalari va tartib-tamoyillarini qo‘llaydi;

akkreditatsiya qilingan muvofiqlikni baholash organlarining xizmatlaridan foydalanishga to‘sqliar yaratilishiga va ular o‘rtasidagi raqobatni cheklashga yo‘l qo‘ymaydi.

sertifikatlashtirish faoliyat ko‘rsatishini va rivojlantirilishini, ularning xalqaro, davlatlararo va xorijiy mamlakatlarning milliy tizimlari bilan uyg‘unlashtirilishini ta‘minlash borasida:

respublikada ishlab chiqariladigan va import bo‘yicha olib kelinayotgan mahsulotlarni sertifikatlashtirish, xorijiy mamlakatlarning sertifikatlashtirish natijalarini e’tirof etish ishlarini tashkil etadi;

xalqaro, mintaqaviy va davlatlararo tashkilotlarga qo‘shilish bo‘yicha belgilangan tartibda takliflar kiritadi;

muvofiqlikni baholash sohasida xalqaro amaliyotni doimiy ravishda o‘rganadi, uning natijalari bo‘yicha ilg‘or amaliyotlarni joriy qilish bo‘yicha takliflar kiritadi.

4-bob. Boshqarmaning huquqlari, majburiyatları va javobgarligi

11. Boshqarma o‘ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni amalga oshirish uchun quyidagi huquqlarga ega:

boshqarma tomonidan ko‘rib chiqiladigan masalalar, shuningdek normativ-huquqiy hujjatlar va boshqa hujjatlarning loyihibarini tahlil qilish va ishlab chiqish uchun zarur bo‘lgan materiallar va ma’lumotlarni O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining tizim tashkilotlaridan so‘rash va olish;

boshqarma tomonidan ko‘rib chiqiladigan masalalarni ishlab chiqish, axborot va tahliliy materiallarni, shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlar va boshqa hujjatlar loyihibarini tayyorlashda O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish

agentligi tizim tashkilotlari vakillarini belgilangan tartibda jalb qilish, shu maqsadda ekspert va ishchi guruuhlar tashkil etish;

boshqarma, O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining tizim tashkilotlari rahbarlari, rahbarlari o'rinnbosari hamda vakillari ishtirokida belgilangan tartibda yig'ilishlar o'tkazish;

O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi tizim tashkilotlari rahbarlariga jadal hal qilinishi talab etiladigan va O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligiga yuklangan vazifalar hamda funksiyalarni bajarish bilan bog'liq masalalar yuzasidan o'z vakolati doirasida topshiriqlar berish;

boshqarma markaziy apparati qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

12. Boshqarma:

O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi tizim tashkilotlari bilan birgalikda O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligiga yuklangan vazifa va funksiyalarning sifatli va o'z vaqtida bajarilishini ta'minlash;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga ko'rib chiqish uchun kiritiladigan normativ-huquqiy hujjatlar va boshqa hujjatlar loyihalari, shuningdek, O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi tomonidan qabul qilinadigan qarorlar loyihasini tayyorlanishi sifatli bo'lishini ta'minlashi shart ;

13. Boshqarma boshlig'i va xodimlar o'zlarining faoliyati natijasida olingan va foydalanadigan axborotlarning maxfiyligi uchun javobgardirlar;

14. Boshqarma boshlig'ining javobgarligi:

- a) boshqarmaga yuklangan vazifa va funksiyalarning bajarilishi;
- v) o'z funksional vazifalarining sifatli bajarilishi uchun shaxsan javob beradi.

5-bob. Hududiy bo'linmalar va idoraviy mansub tashkilotlar bilan hamkorlik qilish tartibi

15. Muvofiqlikni baholash bo'yicha texnik siyosatni amalga oshirish boshqarmasi Texnik jihatdan tartibga solish agentligining hududiy bo'linmalari va idoraviy mansub tashkilotlari bilan hamkorlikda ish olib borib, o'z faoliyat yo'nalishlari bo'yicha:

- topshiriqlarni yetkazadi hamda ularning bajarilish holatini nazorat qilib boradi;

- tarkibiy bo'linmalarning to'g'ridan-to'g'ri faoliyati masalalari bo'yicha so'rovnomalar jo'natadi hamda ularning ijrosini nazorat qiladi;

- ularning faoliyatini tekshiradi va o'rganadi, amaliyotini umumlashtiradi, ularni takomillashtirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar ishlab chiqadi va qabul qiladi;

- hududiy bo'linmalari va idoraviy mansub tashkilotlari faoliyatini tashkil etish va natijalari to'g'risida hisobot va axborot materiallari, statistik va boshqa ma'lumotlarni o'rganishni tashkil etadi;

- ish rejalarini tahlil qiladi, ularning faoliyatini rejalashtirishni takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar ko'radi;

- hududiy bo'linmalari va idoraviy mansub tashkilotlaridan kelib tushgan takliflarni ko'rib chiqadi;

- normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlashda ishtirok etishini tashkil etadi, ulardan kelib tushgan qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha takliflarni ko'rib chiqadi.